

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo’lyozma huquqida
UDK:339.5(510)
BBK: 65.7(5 кит)
P-18

Razzakov Bekzod

**Mavzu: “ERKIN IQTISODIY ZONALARNING IQTISODIY O’SISHGA
TA’SIRI” (Xitoy va O’zbekiston misolida)**

**5A 231001- “XMI va mamlakatshunoslik”
(Xitoy va JShO mintaqasi mamlakatlari iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi)**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar: i.f.n., dotsent. Melibaeva G.A.

Toshkent-2015
Himoyaga ruxsat berildi:

Magistratura bo‘lim boshlig‘i

Ibrohimova Sh.

KIRISH.....4

I bob. Erkin iqtisodiy zonalarni barpo etishning nazariy asoslari.....10

1.1. Erkin iqtisodiy hududlar- xorijiy investitsiyaalarni jalb qilishning asosiy dastagi
va iqtisodiy o'sish omili sifatida.....10

1.2. Erkin iqtisodiy zonalarning mohiyati va ularning jahon iqtisodiyitidagi
tutgan o'rni va ro'li.....24

1- bob bo'yicha xulosa.....	47
II bob. Xitoy iqtisodiyotida erkin (maxsus) iqtisodiy hududlarning ro'li va ahamiyati.....	49
2.1. Xitoy iqtisodiy rivojlanishida maxsus iqtisodiy hududlarning roli va ahamiyati.....	49
2.2.Xitoyda qulay investitsion muhitning yaratilishi va unda maxsus iqtisodiy zonalarining tashkil topishi.....	55
2-bob bo'yicha xulosa.....	62
III bob. Xitoy erkin iqtisodiy zonalarining rivojlanish strategiyasi va uning tajribasidan O'zbekiston sharoitida foydalanish.....	64
3.1. Xitoy maxsus iqtisodiy zonalariga xorijiy sarmoyalarni jalb etishning zamonaviy xususiyatlari va kelajak istiqbollari.....	64
3.2. Xitoyning erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari.....	72
3-bob bo'yicha xulosa.....	89
Xulosa	91
Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.....	104

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasi hozirgi davrda jahon tajribasini e'tiborga olgan holda, ijtimoiy — iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos va mos yo'lini tanladi. Ma'lumki, jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashishning samarali va optimal usullaridan biri bu - erkin iqtisodiy zonalarini barpo etish hisoblanadi. Erkin iqtisodiy zonalar mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb etish jarayonlarini faollashtirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga va shu orqali ishsizlik muammosini

hal etishga, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga hamda valyuta tushumlarini ko‘paytirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish bo‘yicha jahon tajribasi boy va xilma-xil bo‘lib, bu sohada Xitoy Xalq Respublikasida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida erishgan ulkan natijalari, jahon xo‘jalik tizimida mamlakat mavqeining oshib borishi ko‘p jihatdan erkin iqtisodiy zonalar faoliyati bilan bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish bo‘yicha, Xitoy tajribasini o‘rganish, undan O‘zbekistonda foydalanish bo‘yicha ilmiy - amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish benihoya dolzarb hisoblanadi.

Ma‘lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotini bozor munosabatlari asosida shakllantirish va rivojlantirish maqsadida iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalariga tegishli strategik vazifalarni o‘z ichiga oluvchi keng qirrali tarkibiy-tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy va institutsional islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishga ustuvorlik berildi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, avvalgi xom ashyo eksporti siyosatidan, jahon bozoriga tayyor iste‘mol mahsulotlari chiqarishga, shu asosda mamlakatimizga xorijiy valyuta va investitsiyaalar oqimi va hajmini yanada ko‘paytirish - eng muhim strategik vazifalarni hal etishni, ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilayotgan ichki va tashqi investitsiyaalardan to‘liq va samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

Shu o‘rinda, ta‘kidlash lozimki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash ko‘lamini yanada kengaytirish, uning uchun tashqi va ichki investitsiyaalar hajmini ko‘paytirish va ulardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish masalalari mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur masalalar hisoblanib, aynan, bunda erkin iqtisodiy zonalarining mamlakat iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga ta‘siri bevosita ekanligi katta ahamiyat kasb etmoqda.

Shuning bilan birga, iqtisodiyotni erkinlashtirish mexanizm va tamoyillarining muhim talablaridan biri - investitsion faoliyat va uning turlarini kengaytirish, qulay investitsion muhit yaratishda davlatning bevosita qo‘llab-quvvatlash unsurlarining rolini oshirish, xo‘jalik sub‘ektlarining o‘z faoliyat yo‘nalishlarini mustaqil va erkin belgilash muammolarini bozor munosabatlariga mos ravishda hal etishni taqozo qiladi. Shu o‘rinda mamlakatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “2014-yilda

iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yimlarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Investitsiya dasturini amalga oshirishda korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalarning yildan-yilga faol ishtirok etayotgani barchamizga alohida mamnuniyat bag'ishlaydi"¹, degan so'zlariini aytib o'tish joizdir.

Shu nuqtai nazardan ham, XXRning chet el sarmoyalarini jalb etishdagi va uning erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilishi bo'yicha ilg'or tajribasi asosida mamlakat iqtisodiyotida qulay investitsion muhit yaratish, real tarmoq va xo'jalik yuritish sub'ektlari faoliyatlarini diversifikatsiyalash, ularni zamonaviy texnik-texnologik asbob-uskuna va jihozlar asosida modernizatsiya qilish, ushbu jarayonlarga etarli darajada investitsiyalar yo'naltirish va ularni moliyalashtirish manbalarini rivojlantirishning ob'ektiv zaruriyati mazkur magistrlik dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot ishining ob'ekti va predmeti. Tadqiqot ishining ob'ekti sifatida XXR iqtisodiyotidagi EIZ va MIZ namoyon bo'ladi. Tadqiqot ishining predmeti sifatida Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishi va uning iqtisodiy o'sish sur'atlariga mamlakatdagi erkin iqtisodiy hududlarning ta'siri, undagi qulay investitsion muhit, xorijiy investitsiyaalar jalb qilish ko'lamini kengaytirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolar ilmiy tadqiqotning predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Tadqiqot ishining maqsadi Xitoy Xalq Respublikasida Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida erkin iqtisodiy hududlarining o'rni va rolini aniqlash asosida mamlakatimizda xorijiy investitsiyaalardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

¹ O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasim 17.01.2015y

- Erkin iqtisodiy zonalarining mohiyati va ularning jahon iqtisodiyatidagi tutgan oʻrni va roʻli oʻrganib chiqish va taxlil etish;
- Iqtisodiy oʻsish nazariyalari, mohiyati, omillari va turlarini oʻrganib chiqish va oʻz ilmiy yondoshuviga ega boʻlish;
- Xitoyda qulay investitsion muhitini yaratish tamoyillari va mamlakat iqtisodiy rivojlanishida erkin iqtisodiy hududlarning roli va ahamiyatini aniqlash;
- XXR EIZ lariga toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyaalarni jalb etish siyosatining ustuvor yoʻnalishlarini aniqlash;
- Xitoy iqtisodiy oʻsish tendensiyalari va uning tajribasidan Oʻzbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va bu boʻyicha kerakli taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Mazkur ishning ilmiy yangiligi sifatida, aynan, Xitoy tajribasining ijobiy tomonlaridan mamlakatimizda tashkil etilayotgan Maxsus industrial zonalarini barpo etishda Oʻzbekistonning oʻziga xos boʻlgan xususiyatlaridan kelib chiqib foydalanish boʻyicha tegishli tavsiya va takliflar ishlab chiqishda namoyon boʻladi.

Tadqiqot ishining asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishining asosiy masalalari sifatida Xitoy Xalq Respublikasining maxsus iqtisodiy zonalakarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga taʼsirini tadqiq etishda namoyon boʻladi. Xitoy Xalq Respublikasi tajribasini oʻrgangan holda, Oʻzbekiston sharoitiga mos keladigan tomonlari asosida tegishli taklif-tavsiya berish mazkur tadqiqot ishining asosiy masalasi hisoblanadi.

Qolaversa, tadqiqot ishida AQSh iqtisodchilari S.Fisher, R.Dornbush va R.Shmalenzi, amerikalik boshqa iqtisodchilar S.Bryu va M.Kempbell iqtisodiy iqtisodiy oʻsishning zamonaviylashtirilgan nazariyalari, undan tashqari, E.Avdokushin, K.A.Semenov, T.P.Danko va Z.M.Okruglarning EIH boʻyicha ilmiy tadqiqotlari qoʻllanilgan.

Xitoy Xalq Respublikasidagi maxsus iqtisodiy zonalakarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga taʼsirini natijaviy va uning innovatsion-investitsion rivojlanish tajribasini Oʻzbekiston Respublikasiga xos xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda

qo‘llagash orqali, mamlakatimiz iqtisodiy jihatidan ravnaq topishiga erishish mumkin bo‘ladi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi. Milliy iqtisodiyot va uning quyi bo‘g‘inlarida investitsion faoliyatni tashkil etish, milliy iqtisodiyotni investitsiyaalash manbalarini shakllantirish, qulay investitsion muhit yaratish, iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion faoliyatga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish va hisobga olish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini takomillashtirish etish kabi qator masalalar ko‘plab iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha o‘rganib kelinmoqda.

Xitoydagi iqtisodiy islohotlar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar va erkin iqtisodiy zonalarni barpo etish borasidagi amalga oshirilgan ishlar ko‘plab xorij olimlari – F.Bergshteyn, M.Goldshteyn, Dj.Djilboy, R.Kupman, N.Lardi va boshqalarning² tadqiqotlaridan keng o‘rin olgan.

Chet el va Rossiya iqtisodchi olimlaridan F.Modilyani, M.Miller, D.Tobin, V. Aladin, Dj. Aleksandr, V. Beyli, I. Vaxrin, S.Valdaysev, P. Vorobev, V. Jdanov, V.Igoshin, V. Kiseleva, Ya. Melkumov, S. Neshitoy, G. Nikolskaya, D.Tobin, U. Sharplar investitsion faoliyat turlari, uning tasnifi va rivojlanishining ilmiy-amaliy asoslari, investitsiyaa faoliyatini moliyaviy-iqtisodiy baholash usullari, investitsion muhitni, jumladan, XXRda investitsion muhitni baholash uslubiyatlari bilan bog‘liq yo‘nalishlarda tadqiqot ishlari olib borganlar.³

²: China: the balance sheet: what the world needs to know now about the emerging superpower. / C.Fred Bergstein, Bates Gill, Nicholas R.Lardy, Derek Mitchell. – 1st ed. – NY: Public Affairs, 2006; Goldstein, Morris. A (Lack of) Progress Report on China's Exchange Rate Policies // Peterson Institute, Working Paper 07. – Washington D.C., 2007; Gilboy, George F. The Myth behind China’s Miracle // Foreign Affairs, July/August 2004. – p. 33-48; Robert B. Koopman, Zhi Wang, Shang-Jin Wei. How much of Chinese exports is really made in China? // 8 August 2008. Source: www.voxeu.org. Last access date: 15.12.2008; Lardy, Nicholas R. Integrating China into the Global Economy. – The Brookings Institution Press, 2002;

³ Шарп У., Александер Г., Бэйли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2003. – XII, с.1.; Вахрин П.И., Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. – 3-е изд., перераб. И доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2005. С.13.; Игошин Н.В. Инвестиции. Организация управления и финансирование: Учебник для вузов. 2-е изд., перераб. и доп. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001.С.81; Инвестиции: Учебник / С.В.Валдайцев, П.П. Воробьев и др.; Под ред. В.В. Ковалева, В.В. Иванова, В.А. Лялина. –М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2003. С.17; Мелкумов Я.С. Инвестиций: Учебное пособие. –М.: ИНФРА-М, 2003. С.8. ; Жданов В.П. Инвестиционные механизмы регионального развития. –Калининград, БИЭФ, 2001. С.121.

Dissertatsiyada xitoylik olim va tadqiqotchilar Ba Szinsin, Van Menkuy, Vang Dji, Li Tein, Li Syuy, Li Szyun, Li Yuyfen, Lin Yifu va boshqalarning⁴ ilmiy tadqiqotlaridan ham foydalanildi.

Milliy iqtisodiyotimizning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasini atroflicha o'rgangan, jumladan, XXRning xorijiy investitsiyaalarga doir masalalarni tadqiq etgan olimlar qatorida G.Saidova, N.Sirojiddinov, E.Trushin, N.To'xliiev, G.Xachiev, B.Xodjaev, R.Shodiev, D.Qurbonov, G.A.Melibayeva, B.D.Sadibekova, E.R.Maxmudov va boshqalarni⁵ ta'kidlash joiz.

XXRda erkin iqtisodiy zonalaridagi investitsiyaalarni moliyalashtirish manbalari bilan bog'liq muammolar etarlicha tadqiq etilmagan. Bu o'z navbatida, ushbu magistrlik dissertatsiya ishining mavzusini tanlashga asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotni amalga oshirishda tizimli yondashuv, kuzatish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, taqqoslama tahlil va boshqa iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy, uslubiy va amaliy natijalari hamda xulosalari qulay investitsion muhitni yaratish, investitsion siyosatni takomillashtirish, iqtisodiyotning real tarmoqlarida investitsion faoliyatlarni tashkil etish va rivojlantirish, ularni moliyalashtirish manbalarini takomillashtirish va investitsiyaalardan foydalanish samaradorligini oshirish kabi strategik vazifalarni hal etish bilan bog'liq huquqiy-me'yoriy hujjatlar va moliyaviy-iqtisodiy

⁴: Ба Цзиньсинь. Формирование транснациональных корпораций в Китае // Проблемы Дальнего Востока. – М., 2005. – №5. – стр. 97-103; Ван, Мэнкуй и др. Экономика Китая. – С.И.: Межконтинентальное издательство Китая, 2005. – С.194.; Ли, Теин. Развитие китайской экономики в XXI веке: проблемы и перспективы // Li, Cui. China's Growing External Dependence // Finance & Development online. – September 2007, Vol. 44, No. 3; Li, Yuefen. Why is China the World's Number One Anti-Dumping Target? // China in a Globalizing World. – New York and Geneva: United Nations, 2005. – P. 75-103; Лин Юэцин. Проблемы и возможные перспективы развития китайского экспорта // Китай и Россия: общее и особенное в социально-экономическом развитии / Под ред. Л.В.Никифорова, Т.Е.Кузнецовой, М.Б.Гусевой; ИЭ РАН. – М.: Наука, 2005. – С. 145-151.

⁵ Совершенствование инвестиционной политики: макроэкономические условия и предпосылки активизации частных инвестиций в Узбекистане / Под. рук. Саидовой Г.К. // Доклад ЦЭИ/ПРООН. Т., 2008. – С.48 Сиражиддинов Н. Проблемы повышения эффективности внешней торговли Узбекистана: теоретико-методологические аспекты. – Т: УМЭД, 2004. – С.224, Э.Трушин, Б.Эргашев. Внешнеторговая политика: выбор стратегии для Узбекистана // Экономическое обозрение. – Т., 2000. – №1. – С.. 6-20; Тўхлиев Н. Бозорга ўтишнинг машаққатли йўли. – Т.: “Ўзбекистон”, 1999. – 240 б.; Хачиев Г.А. Узбекистан: портрет на фоне мировой экономики. Т.: УМЭД, 2006. – С.28; Д.Д.Курбанов «Привлечение прямых иностранных инвестиций в КНР: опыт, возможности расширения узбекско-китайского сотрудничества», диссертация на соискание кандидата экономических наук, Т., 2002, С.152, G.A.Melibayeva. O'rganilayotgan mintaq mamlakatlarida mahsus iqtisodiy hududlar, Darslik, 2014, С.165

mexanizmlarni iqtisodiyotni modernizatsiyalash talablariga mos ravishda yanada mukamallashtirish nuqtai nazardan muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Kirish, uchta bob (sakkista paragraf), xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

XULOSA

Xitoy iqtisodiyotining oxirgi 3-5 yillardagi rivojlanish xususiyatlaridan biri - bu undagi resurslarning etishmasligi (defitsiti) hisoblanadi. Xitoy o'zining mavjud iqtisodiy o'sish sur'atlarini saklab turish uchun, bir tomondan, mineral resurslar importini ahamiyatli tarzda oshirib borishi yoki, ikkinchi tomondan, mavjud mineral resurslar va sanoat maxsulotlari eksportini chegaralashi va ichki bozorda ulardan foydalanishni qisqartirishi lozimdir.

Xitoy iqtisodiyotida maxsus iqtisodiy zonalarining tutgan o'rni va undan Uzbekistonda foydalanish muammolariga bag'ishlangan malakaviy-bitiruv ishi natijalarini umumlashtirish quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Erkin iqtisodiy zonalar milliy iqtisodiy hududning bir qismi bo'lib, u erda mamlakatning boshqa qismlarida foydalanilmaidigan maxsus imtiyozlar va engilliklar tizimi amal qiladi. Milliy va xorijiy tadbirkorlar uchun taqdim etilgan aloxida imtiyozli iqtisodiy shart- sharoitlar tashqi savdo, umumiy iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va ilmiy- texnologik vazifalarni echishga yordam beradi. Ushu Xitoy EIX laridagi qo'llanilayotgan quyidagi imtiyoz va engilliklardan foydalanish:

- uskunalar, xom ashyo va ishlab chiqaripshing boshqa tashkil etuvchilari importini bojxona bojlaridan to'la yoki qisman ozod etish;
- foydaga solinayotgan soliqlarga imtiyozlar joriy etish;
- daromad solig'idan to'la yoki qisman ozod qilish;
- eksport imtiyozlarini joriy etish va mamlakatning boshqa qismlaridan olib kelinadigan uskunalar, xom ashyo va ishlab chiqarishning boshqa tashkil etuvchilarini rag'batlantirish;
- eksportga imtiyozli shart—sharoitlar joriy etish;

- maxalliy soliqlardan ozod qilish;
- xorijiy investitsiyalarning barcha shakllariga ruxsat berish;
- eksport va importni imtiyozli litsenziyalash;
- foydani erkin o'zlashtirishga imkoniyat yaratish;
- erkin iqtisodiy zonada milliy valyutaning qisman yoki to'liq erkin almashuvini ta'minlaydigan alohida valyuta rejimini joriy etish;
- kommunal xizmat, transport tariflari uchun pasaytirilgan ijara to'lovlarini taqdim etish;
- jadallashtirilgan amortizatsiyani joriy etish;
- zamonaviy bozor infratuzilmasini hamda xizmatlar tarmoqlarini barpo etish;
- xorijiy va aralash korxonalarga davlat kafolatlari va qarzlarini taqdim etish va boshqalar.

Xitoy tashqi savdosidagi ijobiy saldoning o'sib borishi borasida uning savdo xamkorlari tomonidan muayyan fikrlar bildirilib, bunga misol tariqasida 2005 yilda AQSh senati tomonidan Xitoy importiga 27,5% miqdorida tarif o'rnatish masalasini ko'rib chiqilishini kiritish mumkin. Ammo, lekin bu choraning kiritilishi, Xitoy tomonidan uning valyuta kursini korrektirovka qilinishi natijasida kechiktirildi. Undan tashqari, AQSh tomonidan doimiy ravishda Pekin uchun mualliflik huquqiga rioya qilish masalasi ko'tarilib kelinadi. Bu masalaning yana ko'tarilishiga sabab, Xitoy xukumatining dastur ta'minoti bo'yicha mahalliy ishlab chikaruvchilarini davlat tomonidan ular mahsulotlarini sotib olish orqali qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanliklari to'g'risidagi axboroti bo'ldi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi 20-yillik davri mobaynida mamlakat eksport xajmining o'sishiga uning iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy manbai sifatida va mamlakatga solishtirma ustunliklardan (uning arzon ishchi kuchidan) foydalanish omili sifatida qaraldi. Ammo, mamlakat tovarlar eksporti tarkibining takomillashuvi bilan fan sig'imi katta bo'lgan mahsulotlar ulushining ortishiga va jahon kon'yunkturasining o'zgarishiga qarab xitoy tovarlarining rakobatbardoshligi kuchaydi.

2006 yilning sentyabr oyida sanoatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar raqobatbardoshligi indeksi e'lon qilindi. U 2005 -yilda 78,98 ni tashkil etgan bo'lib,

bu 2001-yilga nisbatan 2,5 % punktga ko'pdir. Shuni ta'kidlash joizki, elektronika, aloqa vositalari bo'yicha ichki indeks 83,7-83,5 ni, eksport uchun maxsus ishlab chikarilgan tovarlar indeksi esa, 91,0 ni tashkil etgan⁶.

Oxirgi yillarda Xitoy "o'zidan chiqish" dasturini amalga oshirishga kirishib, tashqi savdo xajmini kengaytirishdan sekin-asta voz kechmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyat turlarini diversifikatsiyalash, xizmatlar savdosini o'stirish, xitoy investitsiyalarini xorijga chiqarishni ko'paytirish ishlari tovarlar tashqi savdosidagi zararlarni qoplashi lozim.

So'nggi yillarda, uzoq muddatga mo'ljallangan strategik xarakterga ega bo'lgan Xitoyning tashqi iqtisodiy siyosati uning Umumxitoy xalq vakillari kengashi majlisida va unig Doimiy kengashi sessiyalarida XXR Davlat Kengashi tomonidan qonuniylashtirildi. Mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar davrida juda ko'p qonun va me'yoriy xujjatlar qabul qilinib, ular quyidagilardan iborat bo'ldi: "XXR ning qo'shma korxonalardan olinadigan daromad solig'i to'g'risidagi qonuni"; "Qo'shma korxonalarda mehnat munosabatlarini tartibga solish to'g'risidagi qonun"; "XXR ning chet mamlakatlar bilan iqtisodiy shartnomalar tuzish to'g'risidagi qonuni" va boshqalar.

Xitoyda tashqi savdoni boshqarish tizimining isloh qilinishi, uzoq muddatli iqtisodiy hamkorlikning shartnomaviy va xuquqiy mexanizmi ishga tushirilishi, XXR ichki qonunlarining asta-sekin ana shunday hamkorlik ehtiyojlariga moslashuvi, moliya va soliq siyosati, kreditlar berilishi "ochiq eshiklar" siyosati davlat yo'li bilan tartibga solishning asosiy tashkiliy tadbirlari va vositalari tufayli mumkin bo'ldi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida, dunyo bozorida talabning pasayib borishi yuz berayotgan bir paytda, Xitoy esa jahondagi eng yirik eksporter davlat ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, hozirgi kunda unga oson emas. Ammo, lekin, ushbu xolatni yaxshi tushungan Xitoy xukumati, o'z ichki iste'mol bozorining talab miqyosi kengligini e'tiborga olib, eksportga mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarini ichki bozorga (talabiga) yo'naltira boshladi. Bunda u albatta, ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirishga, xom ashyo va resurslarni hamda

⁶ (www.china.org.cn/e-news/news/060912-3).

energiyani tejashga o'z e'tiborini qaratdi. Natijada, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham, u o'z makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini yuqori sur'atlariga erishdi, ya'ni, 2009 yilda mamlakatning YaIM hajmi 8,7% ga o'sib, u 33 trln.535,3 mlrd.yuanni (4,91 trln.AQSh doll.) tashkil etdi.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, XXR ning tashqi savdo aylanmasi hajmi 2014 yil yakuniga ko'ra, 2008 -yilga nisbatan -7,9% ga pasaydi va u 4 trln.16,3 mlrd. AQSh doll.ni tashkil etdi. Xususan, bunda eksport hajmi 2008- yilga nisbatan, 2 trln.211,1 mlrd.AQSh doll.gacha, import hajmi esa, 1 trln.9,63 mlrd. AQSh doll.tashkil etdi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Xitoyning jahon savdosidagi ulushi -2008 yilda 6% ni tashkil etgan bo'lsa, 2014- yilda uning ulushi 15% dan oshib ketganligini guvohi bo'ldik.⁷ Demak, yaqin kelajakda ham, Xitoy o'z tashqi savdo aylanmasining hajmini orttirib borishga xarakat qiladi va hozirgi kunda o'z eksportining eng raqobatbardosh mahsulotlari hisoblangan oyoq-kiyim, kiyim-kechaklar va o'yinchoqlarni sifatini yaxshilashga va ular narxini optimallashtirishga e'tiborini qaratadi.

Xitoy tashqi savdo aloqalarini rivojlanish xususiyatlarini izchillik bilan o'rganib, taxlil qilib chiqish natijasida, uning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatishni lozim topdik:

- Xitoy tashqi savdosining jahon bozorini talablariga arzon va xamyonbop tovarlarni etqazib berishi orqali xozirjavoblighi;
- Sanoat ishlab chiqarishda imkon qadar xorijiy kapitalli qo'shma korxonalarni tashkil etish orqali, ularda yangi va yuqori texnologiyalarni joriy etish natijasida, ma'naviy va moddiy tomondan eskirgan uskuna va jihozlarni asosiy fondlardan sekin-asta chiqarib borishi. Aynan mana shu jihati O'zbekistonning sanoat ishlab chiqarish korxonalaridagi vaziyatlar bilan o'xshashligini ta'kidlash lozimdir;
- Xitoy hukumati nafaqat, xoriy sarmoyalarni intensiv tarzda o'z

⁷ Анализ перспектив китайской экономики-весенний доклад 2009 г.Под.ред.Чэнь Цзягуэй.-Пекин, 2014.С.139-142., <http://russian.china.org>.

iqtisodiyotiga jalb qilibgina qolmasdan, balki, o'zi ham sarmoya qo'yishda faol qatnashishi, ayniqsa u o'z sarmoyalarini Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiyaga kiritishi (strategik qo'shnichilik hamkorligini rivojlantirishi);

- Xitoy tashqi savdosini diversifikatsiyalash borasida amalga oshirayotgan siyosatining maqsadga muvofiqligi;

- Mamlakat savdo balansining doimiy tarzda ijobiy saldo bilan yuritilishi.

Xulosa qilib va yuqoridagi fikrlarni qayd etgan xolda, shuni ta'kidlash lozimki, Xitoy savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish strategiyasidan O'zbekiston uchun foydalanish imkoniyatlarini quyidagilardan ko'rish mumkin:

- mamlakatga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmini Xitoy kabi maxsus iqtisodiy zonalarini barpo etgan xolda, ularda muayyan imtiyozlar tizimini va investitsion iqlimni shakllantirish orqali ko'paytirib, sarmoyalardan ratsional va unumli foydalanish va asosiy tarmoq hisoblangan qishloq xo'jaligida mahalliy ishlab chiqarishni (mahalliyashtirish orqali) yo'lga qo'yish;

- hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida jahon bozorida talabning pasayib borishi oqibatida, O'zbekiston o'z eksport salohiyatidan oqilona foydalanishi va Xitoy tajribasidan kelib chiqib, o'z sanoat ishlab chiqarishini ichki iste'molchilarga qaratishi hamda bu borada mahsulotlar tannarxini pasaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirayotganligi bilan ajralib turishi;

- O'zbekiston tashqi savdo munosabatlari geografiyasini kengaytirgan holda, Osiyo qit'asi bozorlari bilan o'z savdo aylanmasini tayyor va yarim tayyor mahsulotlar evaziga oshirishni yo'lga qo'yishi hamda Xitoy davlati kabi mamlakatga jalb qilinayotgan sarmoyalarni O'zbekistonda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va ularni korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga, yo'naltirish lozim;

- eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona va firmalar uchun, Xitoydagi kabi O'zbekistonda ham, ularga nisbatan belgilangan soliq yukini engillashtirib borishdan iboratdir.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Xitoyda erkin iqtisodiy zonalar bo'yicha, mutaxassislarning turli-tuman ko'z-qarashlari mavjud bo'lib, ular Rossiya iqtisodchi olimlaridan K.A.Semenov, V. Ignatov va V.

Butov, T.P.Danko va Z.M.Okruglarni ilmiy ishlarida o'z aksini topgandir. Ammo, lekin, mana shu fikrlarga mutlaq teskari bo'lgan mulohazalarni xitoy mutaxassislari bildirmoqdalar. Ularning takidlashicha, bugungi kunda mazkur zonalar mamlakat iqtisodiyotiga yordam berish o'rniga, unnig mintaqalari uchun diskriminatsion (kamsitish) holatni yuzaga keltirmoqda, deyдилar. Bizning fikrimizcha, esa, har qanday rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun bu jarayon zarur deb hisoblaymiz, chunki uning salbiy oqibatlarini bo'lishi bilan birgalikda, uning ijobiy tomonlari ustunroqdir.

2011-2015 yillarda tarkibiy o'zgarishlarni, iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni izchil davom ettirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, transport, muhandislik, kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan faol investisiya siyosati olib boriladi.

Ushbu maqsadlar uchun 2011-2015 yillar davomida oxirgi besh yil mobaynida o'zlashtirilgan investisiyalarga qaraganda 2 barobar ko'p, jami 77,4 milliard dollar miqdoridagi investisiyalarni yo'naltirish mo'ljallanmoqda. Asosiy kapitalga kiritilayotgan investisiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 24 foizdan kam bo'lmasligi tarkibiy o'zgartirishlarni jadal amalga oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni ta'minlaydi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy hajmi ichki resurslarni safarbar qilish hisobidan amalga oshiriladi. Kelgusi yillarda bu ko'rsatkich yalpi kapital qo'yilmalar hajmining 76 foizini tashkil etadi.

Bu mablag'lar, avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirayotgan korxonalarining o'z mablag'larini ko'paytirishi, soliq yukini yanada kamaytirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va aholining tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlarini oshirish hisobidan hosil bo'ladi.

Strategik muhim, birinchi navbatda, infratuzilmani shakllantirish, ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va modernizatsiya etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga ichki resurslarni jalb etishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi alohida o'rin egallaydi. Mazkur jamg'armaning tarkibiy o'zgarishlardagi tobora ortib borayotgan rolini inobatga olgan holda, yaqin yillarda uning hisobida 10 milliard dollardan ziyod mablag' jamlanadi.

2011-2015 yillarda yoqilg'i-energetika tarmog'ini, mashinasozlik va avtomobilsozlikni rivojlantirish, elektr energetika sohasida energiya ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligini oshirish va diversifikatsiya qilish, metallurgiya sanoatini kompleks modernizatsiya etish, transport va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan 4,7 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiriladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish 2011-2015 yillar davomida 13 milliard dollardan ziyod yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 1,7 barobar ko'p to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar jalb etilishini ta'minlaydi. Ushbu mablag'lar eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash hamda raqobatdosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladigan yangi sanoat korxonalarini tashkil etish bo'yicha chet el investorlari ishtirokidagi 320 tadan ortiq yirik investisiya loyihasini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Bunday loyihalar haqida so'z borganda, avvalo Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini barpo etish, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasida tozalangan metan bazasida suyultirilgan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish, Muborak gaz-kimyo majmuasini qurish, Qandim guruhi konlarini o'zlashtirib, gazni qayta ishlaydigan zavod barpo etish, Navoiy viloyatida ammiak va karbamid ishlab chiqaradigan zamonaviy kompleks qurish, avtomobil dvigatellari, katta hajmda yuk tashiydigan "MAN" avtomobillari, "Mercedes Bens" shassisi bazasida ko'p o'rinli avtobuslar, "Klaas" kompaniyasi bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarishni tashkil etish, texnik va polikristall kremniy ishlab chiqarish, tayyor mahsulot ishlab chiqarishning to'liq sikliga ega bo'lgan vertikal integratsiyalashgan tekstil majmualarini, tayyor dori preparatlarini ishlab chiqaradigan korxonalarni barpo etish va boshqa loyihalarni qayd etish mumkin.

2013-yilda O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini ko'rish mumkin, unda mamlakat yalpi ichki mahsuloti 8 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana

savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi bashorat ko‘rsatkichidan past bo‘ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.⁸

2011-2015 yillarda qabul qilingan sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o‘rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig‘i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Telekommunikatsiya uskunalari, kompyuter texnikasi va mobil telefonlar, keng turdagi maishiy elektronika mahsulotlari ishlab chiqaradigan yangi zamonaviy korxonalar tashkil etilmoqda. Iqtisodiyotimizning deyarli barcha tarmoqlari modernizatsiya qilinib, amalda texnologik jihatdan yangilanmoqda.

Ana shunday o‘zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi hozirgi vaqtda 24,2 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Holbuki, bu ko‘rsatkich 2000 yilda 14,2 foizdan iborat edi.

So‘nggi 3 yilda mamlakatimizda mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi qariyb ikki barobar oshdi. Faqat o‘tgan yilning o‘zida 455 ta korxonada mahalliyashtirish dasturi asosida 1 ming 140 ta loyiha amalga oshirildi. Buning natijasida ishlab chiqarish hajmi 1,2 barobar ko‘paydi va import o‘rnini bosish bo‘yicha yakuniy samara 5 milliard 300 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Iqtisodiyotimiz tarkibidagi chuqur o‘zgarishlar mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlash, eksport hajmini barqaror oshirish va uning tarkibida ijobiy o‘zgarishlarga erishishda eng muhim omilga aylandi.

Jahon bozoridagi kon’yunkturaning beqarorligiga qaramasdan, 2013 yilda eksport hajmining o‘sishi 10,9 foizdan iborat bo‘ldi. Tashqi savdo faoliyatidagi ijobiy

⁸ “2014 йил юқори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади” Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг мамлакатимизни 2013 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2014 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси 18.01.2014

saldo 1 milliard 300 million dollarni tashkil etdi. 2013 yilda qimmatbaho metallar narxining keskin pasayganiga qaramasdan, mamlakatimiz oltin-valyuta zaxirasi o'tgan yil davomida 2 foizga ko'paydi.

So'nggi yillarda eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulotlar ulushi barqaror sur'atlar bilan o'sib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. 2013 yilda umumiy eksport hajmining 72 foizdan ortig'i tayyor tovarlar hissasiga to'g'ri kelgani iqtisodiyotimiz diversifikatsiya qilinayotganining yaqqol dalolati, desam, xato bo'lmaydi.

Ta'kidlash joizki, sarmoyasiz taraqqiyot yo'q, ishlab chiqarishni va umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni investisiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

2013 yilda Investisiya dasturini amalga oshirish doirasida mamlakatimizda 13 milliard dollar qiymatidagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2012 yilga nisbatan 11,3 foizga ko'pdir. O'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar umumiy hajmining deyarli yarmini, ya'ni 47 foizini xususiy investisiyalar – korxonalar va aholining shaxsiy mablag'lari tashkil etgani alohida e'tiborga loyiqdir.

Jalb etilayotgan investisiyalarning asosiy qismi – 70 foizdan ortig'i, birinchi navbatda, ishlab chiqarish ob'ektlarini qurishga yo'naltirildi, eng yangi zamonaviy uskunalar xarid qilishga sarflangan investisiyalar ulushi esa qariyb 40 foizni tashkil etdi.

Umuman olganda, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiya kiritish hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 foizdan iborat bo'ldi.

O'zlashtirilgan umumiy kapital qo'yilmalar hajmining 3 milliard dollardan ortig'ini xorijiy investisiyalar tashkil etdi. Shuning 72 foizdan ziyodi yoki 2 milliard 200 million dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalardir.

2013 yilda Investitsiya dasturi doirasida moliyalashning barcha manbalari hisobidan umumiy qiymati qariyb 2 milliard 700 million dollardan iborat bo'lgan 150 ta ishlab chiqarish yo'nalishidagi loyihani amalga oshirish ishlari nihoyasiga etkazildi. Bular qatorida Toshkent issiqlik elektr markazida kogenerasion gaz

turbinali texnologiyani joriy etish; Janubiy O‘rtabuloq – Muborak gazni qayta ishlash zavodi gaz quvurini va kompressor stansiyasini barpo etish orqali Somontepa va Janubiy O‘rtabuloq konlarini to‘liq jihozlash; «Angren» konini modernizatsiya qilish orqali Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasining 1-5-energiya bloklarini yil davomida ko‘mir bilan ishlashga o‘tkazish; «Angren» maxsus industrial zonasi hududida «Ohangaron» podstansiyasini rekonstruksiya qilish, «Bekobod sement» ochiq aksiyadorlik jamiyatida yangi liniya qurish hisobidan faoliyat ko‘rsatayotgan sement ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish, “Quyuv-mexanika zavodi” sho‘ba korxonasida metall quyishni rekonstruksiya qilish va boshqa yirik loyihalar borligini alohida qayd etish lozim.

Shu bilan birga, Toshkent va Namangan viloyatlarida zamonaviy to‘qimachilik komplekslari, Jizzax va Xorazm viloyatlarida yigiruv va to‘quv, Samarqand viloyatida sport poyabzallari ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi. Oziq-ovqat sanoati bo‘yicha 21 ta korxonada ishlab chiqarish modernizatsiya qilindi va texnik qayta jihozlandi.

«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etilganidan buyon uning hududida umumiy qiymati 100 million dollardan ziyod bo‘lgan 19 ta investisiya loyihasi bo‘yicha ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi. Jumladan, yuksak texnologiyalar asosida modem va televizorlar uchun pristavkalar, elektr energiyani elektron hisoblagichlar, yuqori kuchlanishga chidamli kabellar, issiqlik va suv isitish qozonlari, mobil va stasionar telefon apparatlari, tayyor dori vositalari va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

2013 yilda maxsus zonadagi korxonalar tomonidan qiymati 100 milliard so‘mdan ziyod mahsulot ishlab chiqarildi va bu boradagi o‘sish sur‘ati 2012 yilga nisbatan 25,8 foizni tashkil etdi.

«Angren» maxsus industrial zonasi hududida qisqa muddatda umumiy qiymati qariyb 44 million dollar bo‘lgan 5 ta loyiha asosida energiyani tejaydigan diodli yorug‘lik lampalar, turli kattalikdagi mis quvurlar, ko‘mir briketlari kabi yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, shakar ishlab chiqarish bo‘yicha yangi zavod va boshqa korxonalar tashkil etildi.

Ayni shu yoʻnalishda toʻplangan tajribani hisobga olib, oʻtgan yilning mart oyida Jizzax viloyatida «Jizzax» maxsus industrial zonasi tashkil etilgani sizlarga yaxshi maʼlum. Sirdaryo viloyatida bu zonaning filiali faoliyat koʻrsatishi koʻzda tutilgan.

Bugungi kunda «Jizzax» maxsus industrial zonasi hududida transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish boʻyicha faol ishlar olib borilmoqda.

Oʻtgan yilning oʻzida mazkur zona hududida Xitoy kompaniyalari ishtirokida 100 ming dona mobil telefon ishlab chiqarish, shuningdek, chorva mahsulotlarini qayta ishlash va ozuqa tayyorlash boʻyicha umumiy qiymati qariyb 6 million dollar boʻlgan dastlabki 3 ta loyiha amalga oshirildi.

2013 yilda yoʻl-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yuqori surʼatlar bilan olib borildi.

Oʻzbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan avtomobil yoʻllarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari izchil davom ettirildi. Masalan, umumiy foydalanishdagi 530 kilometrlik avtomobil yoʻli qurilib, rekonstruksiya qilindi. Toʻrt qatorli Gʻuzor-Buxoro-Nukus-Beynov avtomobil yoʻlining 141 kilometrlik tarmogʻini sement-beton bilan qoplash, toʻrt qatorli Toshkent-Oʻsh avtomobil yoʻlining Qamchiq dovoni orqali oʻtadigan 18 kilometrlik qismida asfalt-beton yotqizish ishlari amalga oshirildi, ana shu yoʻlning Qoʻqon shahrini aylanib oʻtadigan 15 kilometrlik tarmogʻi, shuningdek, Toshkent aylanma yoʻlining yangi yoʻnalishi barpo etildi hamda Buxoro shahridagi halqa yoʻlda yoʻl oʻtkazgich qurilishi yakuniga etkazildi.

2013 yilda temir yoʻl transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish boʻyicha ishlar jadal olib borildi. Yil davomida ushbu maqsadlar uchun 477 million dollar qiymatidagi kapital qoʻyilmalar yoʻnaltirildi. Bu, oʻz navbatida, 240 kilometrlik temir yoʻl tarmoqlarini modernizatsiya qilish, oʻz kuchimiz bilan 550 ta yuk va 30 ta yoʻlovchi tashiydigan vagon ishlab chiqarish imkonini berdi.

2013 yilda xitoylik sheriklarimiz bilan hamkorlikda transport kommunikatsiyasi sohasida mamlakatimiz uchun ulkan strategik ahamiyatga ega bo'ladigan yana bir yirik loyihani amalga oshirishni boshladik. Bu o'rinda so'z Angren-Pop yo'nalishida elektrlashtirilgan yangi temir yo'lni va 19 kilometrlik temir yo'l tunnelini qurishni ko'zda tutadigan loyiha haqida bormoqda.

Bu tunnel O'zbekistonning markaziy qismini Farg'ona vodiysi viloyatlari bilan ishonchli bog'lash, mamlakatimiz hududida yagona temir yo'l transport tizimini shakllantirish bo'yicha ishlarni yakuniga etkazishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, u Yevropa qit'asini Osiyo bilan bog'laydigan transmilliy transport yo'lagining muhim bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz aholisining 45 foizdan ziyodini raqamli televidenie bilan qamrab olishni ko'zda tutadigan 5 ta raqamli televizion uzatgichni Jizzax, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida o'rnatish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ayni vaqtda bularning barchasi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha kelgusi yillarda amalga oshirishimiz zarur bo'lgan keng ko'lamli chora-tadbirlar tizimidagi dastlabki qadamlar bo'lib, bu ishlarni izchil davom ettirishimiz lozim. 2014 yil sanoat sohasida yuksak texnologiyalarga asoslangan va zamonaviy muhim ob'ektlar va quvvatlarni ishga tushirish, investisiyalarni oshirish va takomillashtirish yili bo'ladi.

Barcha investisiyalarning 73 foizdan ortig'i ishlab chiqarish ob'ektlarini barpo etishga, kapital qo'yilmalarning qariyb 40 foizi mashina va uskunalar sotib olishga yo'naltiriladi.

Xorijiy investisiyalarning umumiy hajmida to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar qariyb 69 foizni tashkil etishi va ularning hajmi 2014 yilda 22,4 foizga ortishi alohida e'tiborga loyiqdir. 2014- yil umumiy qiymati 4 milliard 400 million dollar bo'lgan 150 dan ortiq yirik ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish ko'zda tutilgan.

Shular qatorida «Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodining ishlab chiqarish quvvatini 200 ming tonnadan 600 ming tonnaga oshirish», «Xorazm viloyatida «Damas» rusumidagi engil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil etish», «Jizzax

viloyatida 760 ming tonna portlandsement yoki 350 ming tonna oq sement ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish», «O'zbekiston-Xitoy gaz quvurining uchinchi tarmog'ini qurishni nihoyasiga etkazish», «Sho'rtan va Alan konlarini obodonlashtirish va kompressor stansiyasini barpo etish» bo'yicha va boshqa muhim loyihalarni nihoyasiga etkazish mo'ljallanmoqda.

Yurtimizdagi 500 dan ortiq real sektor korxonasida ishlatilayotgan 160 mingdan ziyod uskuna bo'yicha o'tkazilgan texnik audit natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, ana shu uskunalarining 30 foizdan ortig'i eskirib ketgan. Jumladan, elektr texnika sanoatida uskunalarining 44 foizi, mashinasozlik tarmog'ida 37 foizi, kimyo sanoatida 21 foizi, qurilish materiallari ishlab chiqarishda 20 foizi, oziq-ovqat sanoatida 19 foizi, engil sanoatda 8 foizi eskirgan.

2009-2013 yillarda samarasiz ishlayotgan 172 ta korxona tijorat banklari balansiga o'tkazildi. Ularning 112 tasida ishlab chiqarish faoliyati tiklandi va yangi mulkdorlarga sotildi. Banklar balansida qolgan korxonalarining 43 tasida esa ishlab chiqarish faoliyati tiklandi, yana 17 ta korxonada bu borada ish olib borilmoqda.

Ana shu korxonalarda modernizatsiya va ishlab chiqarish faoliyatini tiklash jarayonlarini amalga oshirish uchun 316 milliard so'm hajmidagi investisiya kiritildi va buning natijasida 9 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratildi.

Shu bilan birga, bugungi kunda 140 dan ortiq korxona zarar ko'rib ishlamoqda. Ularning 67 tasi yirik korxonalar bo'lib, 10 tasi sanoat sohasiga, jumladan, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo, elektr texnika va farmasevtika sanoati tarmoqlariga tegishlidir. Masalan, Toshkent traktor zavodi, "Agregat zavodi", "Chirchiqqishloqmash", "O'zpaxtamash" ochiq aksiyadorlik jamiyatlari og'ir moliyaviy ahvolga tushib qolgan.

Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi 2015 yilda 200 mln.AQSh doll. dagi modernizatsiyalash ishlarini amalga oshirishni rejalashtirdi. Undan tashqari yana bir loyiha DAJ "O'zkimyosanoat" ham (2014-2017 yy.) 2018 yilda 380 mln.doll.lik yangi o'g'it ishlab chiqarish zavodi qurilishini rejalashtirdi.uning quvvati yiliga 145 ming tonna fosfor, 150 ming tonna NRK-o'g'itini va 650 ming tonna sulfay kislotasini ishlab chiqarishga mo'ljallanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.:“ O'zbekiston ”. 2011-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. T.:“Norma”. 2012-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi. T.: “Adolat” 2006-yil.
4. “O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami”, 2008y. 49 son, 478 modda.
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 1992, — 46 b.
6. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'zbekiston Respublikasi: qonunlar va farmonlar. — T.: O'zbekiston, 2001, — 32 — 39 b.
7. "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasi: qonunlar va farmonlar. — T.: O'zbekiston, 2001,-42- 45 b.
8. “Chet el investitsiyalari” to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining 1998- yil 30- aprelda qabul qilingan qonuni

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlar va qarorlari,

Vazirlar Mahkamasining qarorlari

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2015-yil 15-maydagi “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni

ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni.15.05.2015, №PF-4725

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

10. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash - bizning oliy maqsadimiz. -T.: «O'zbekistan», 2008. -48 b.
11. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash - barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - T.: «O'zbekiston », 2008. -64 b.
13. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: «Ma'naniyat», 2008. - 176 b.
14. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. - T.: O'zbekiston, 2009. - 56 b.
15. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir/ T.: O'zbekiston, 2010. - 77 b.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2015-yil 17-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasini 2014-yilning to'qqiz oyida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston, 2015. - 65 b.

IV. Ilmiy adabiyotlar

O'zbek tilida:

22. Sattarov T.S., Sadibekova B.D. Xitoy iqtisodiyoti, o'quv qo'llanma,.Toshkent, 2006 y.

Rus tilida:

23. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. М.: Маркетинг, 2001.
24. Авдокушин Е. Ф. Свободные (специальные) экономические зоны. М., 1993.
25. Игнатов В. Свободные экономические зоны. М.: Ос-89 1997.
25. Мозиас П. Свободные экономические зоны: тенденции мирового опыта // Финансовый бизнес. 1994, №3.
26. Мировая экономика: прогноз до 2020 г. под ред. акад. А.А. Дынкина, Москва, магистр, 2007. 429 с.
27. Муромцева З.А. Индустриальное развитие КНР в условиях экономической реформы (1978-1990 гг.). М. 1992. 179 с.
28. Китайская Народная Республика: политика, экономика, культура, Под ред. М.Л. Титоренко, 2007, Москва, Русская панорама, 2008 г. 407 с.
29. Лычагин А.И. Китай и процессы современной глобализации: закономерности и перспективы развития, Новгород, 2007, Изд-во ННГУ, 2007, 103 с.
30. Островский А.В. Китайская модель перехода к рыночной экономике.- М., ИДВ РАН, 2007.- 208 с.
31. Ремыга В.Н. Реформа системы управления промышленностью КНР. М. Наука. Гл. ред. Вост. Лит. 2002. 197 с.
32. Чернявский С.П. Международный офшорный бизнес и банки. М., 2002

Ingliz tilida:

33. Li Szinszi. Strukturnye izmeneniya v narodnom khozyaystve Kitaya i tendentsii razvitiya. Danday seyszinyu 1998. №5, 18 s.

34. Li Vey, Sao Lyu. Kak vlojit kapital v Kitay. -Pekin, "Sinsin", 1998,54 s.
35. The Global Compefitfivene Report 2006-2007
36. International Monetary Fund. : International Financial Statistica.2006. P262-9
37. China Perspectives, 1996,№ 3, r.20-21.
38. Economic and Social Survey of Asia and the Pacific.-New York, 2004, 299 p.
39. UNCTAD. Handbook of Statistics.- N.Y.and Geneva.2004.-445 p.
40. Zhao Simon X.B. Zhang L. Economic growth and income inequality in Hong Kong tends and explanations China.2005 3.№1,p.74-103
41. Global Financial Stability Report.IMF. April, 2006. P.95/
42. WTO. Annual Report. 2005. P.58.
43. Key Indicators of Developing Asian and Pacific Countries, Manila ADB, 2008, P. 10.
44. UNCTAD. World Investment Report. 2006. P.9-10/
45. Budget of the U.S. Government, F.Y. 2006. Wash. 2005.p.14.
46. The World Bank. World Development Report: attacking poverty. Washington, D.C.,2000/2001-335p.
47. Migrant workes, / The Survey of international Labor Conference, 89, Stssion, 2002, - ILO, Geneva, 2002.
48. China`s economic rise: History, trends, challenges, and implications for the United States.Congressional Research Service, феврал 2014
49. World Economic Outlook (WEO). Международный валютный фонд, апрел 2014

50. China`s economic growth and rebalancing European Central bank, occational paper series #142,феврал 2013
51. China resources Quarterly.Westpac-BREE, май 2014
52. China: Our post-plenum Prognosis. Рейтинговое агентство S&P, декабр 2013

V. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

53. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil statistik axborotnomasi. – T.: 2014. – 117 b.
54. O‘zbekiston iqtisodiyoti: Statistik va tahliliy sharh. Yillik nashr, 2013. T.: 2014. – 92 b.
55. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil statistik axborotnomasi. T.: 2015. – 97 b.
56. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotning mustaqillik yillaridagi asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan prognozlari. Statistik to‘plam. T.: “O‘zbekiston”, 2011.
57. Экономика Узбекистана: аналитический обзор за 2014 год. T.: 2015. - №11. – 108 с.

VII. Internet saytlari

58. <http://www.press-service.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

matbuot ximati).

59. <http://www.mf.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
60. <http://www.cbu.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
61. <http://www.uzse.uz> (“Toshkent” Respublika fond birjasi).
62. <http://www.stat.uz> (O‘zbekiston davlat statistika qo‘mitasi)
63. <http://www.gki.uz> (O‘zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish qo‘mitasi)
64. <http://www.gov.uz> (O‘zbekiston Respublikasi davlat sayti)
65. <http://www.lex.uz> (huquqiy hujjatlar sayti)
66. <http://www.norma.uz> (huquqiy hujjatlar sayti)
67. <http://www.moody.com> (Mudis xalqaro tashkiloti sayti)
68. <http://sse.com.cn> (Shanxay fond birjasi sayti)
69. <http://www.eurostat.org> (Yevropa mamlakatlari statistikasi sayti)
70. <http://www.worldbank.org> (Jahon banki tashkiloti sayti)
71. <http://www.imf.org> (Xalqaro valyuta fondi sayti)